QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.161

IQTIDORLILIK VA IQTIDORLI O‘QUVCHILAR TA’LIMINI TASHKIL ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI: XORIJIY MODELLAR QIYOSIY TAHLILI

Yakubjonova Maftunaxon Islomjon qizi
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti,
Email: maftunaxon2103@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-1346-6080

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtidorlilik va iqtidorli o‘quvchilar ta’limini tashkil etishning konseptual asoslari xorijiy modellar qiyosiy tahlili asosida yoritilgan. Tadqiqotda Renzullining uch halqali modeli, Gagnening differensiallashtirilgan iqtidor va layoqat modeli, Tomlinsonning differensiallashtirilgan ta’lim konsepsiyasi hamda Sternbergning muvaffaqiyatli aql modeli nazariy-qiyosiy usulda o‘rganilgan. Har bir modelning mohiyati, pedagogik ahamiyati va tanqidiy jihatlari ko‘rib chiqilib, ularni O‘zbekiston ta’lim tizimi, saralash va baholash amaliyoti hamda madaniy konteksti sharoitida moslashtirish yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtidorlilik, iste’dod, iqtidorli o‘quvchilar, Renzulli uch halqali modeli, differensiallashtirilgan ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchilar, kompetensiya, xorijiy modellar.

Аннотация. В статье освещены концептуальные основы одарённости и организации обучения одарённых учащихся на основе сравнительного анализа моделей их формирования. В исследовании теоретико-сравнительным методом изучены трёхкольцевая модель Рензулли, дифференцированная модель одарённости и таланта Ганье, концепция дифференцированного обучения Томлинсон, а также модель интеллекта Стернберга. Для каждой модели рассмотрены критический анализ, педагогическая значимость и практическое применение, а также обоснованы направления адаптации моделей к системе образования Узбекистана, практике отбора и культурному контексту.

Ключевые слова: одарённость, талант, одарённые учащиеся, трёхкольцевая модель Рензулли, дифференцированное обучение, будущие учителя, компетенция, квалификационные модели.

Abstract. The article presents the conceptual foundations of giftedness and the organization of education for gifted students on the basis of a comparative analysis of models of giftedness development. Using a theoretical-comparative method, the study examines Renzulli’s Three-Ring Conception, Gagné’s Differentiated Model of Giftedness and Talent,

Tomlinson’s concept of differentiated instruction, and Sternberg‘s model of intelligence. For each model, a critical analysis, its pedagogical significance, and its practical application are considered, and directions for adapting the models to Uzbekistan’s education system, selection practices, and cultural context are substantiated.

Keywords: giftedness, talent, gifted students, Renzulli’s Three-Ring Conception, differentiated instruction, prospective teachers, competence, qualification models.

KIRISH. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo‘nalishdagi islohotlar asosan maxsus ta’lim muassasalari tarmog‘ini yaratish orqali amalga oshirilmoqda.

Tizimning dastlabki asosi 2019-yil 20-fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4199-son qaror bilan qo‘yildi va shu qaror asosida 14 ta Prezident maktabi tashkil etildi. Bu maktablarning asosiy maqsadi iqtidorli bolalarni aniqlash, ularga ilg‘or ta’lim texnologiyalari asosida ta’lim berish va kelgusida mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash etib belgilangan. Keyingi bosqichda 2021-yil 19-iyuldagi “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5188-son qaror qabul qilindi va Prezident ta’lim muassasalari agentligi huzurida iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Qaror doirasida ijod maktablari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ham tasdiqlangan.

2022-yilda Prezidentning 14-aprelda “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi farmoni bilan ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, malakali rahbar va pedagog kadrlarni jalb qilish hamda iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash tizimini takomillashtirish belgilandi. Farmonga ko‘ra bu maktablarni moliyalashtirish manbalari orasida davlat byudjeti, Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, xalqaro moliya institutlarining kreditlari va grantlari hamda homiylik mablag‘lari ham ko‘rsatilgan. Keyinchalik agentlik Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi shaklida qayta tashkil etildi. Uning vazifalari orasida STEAM fanlari bo‘yicha o‘quvchi va pedagoglarning bilim va ko‘nikmalarini xalqaro AS va A-Level dasturlari talablariga muvofiq baholash amaliyotini yo‘lga qo‘yish ham bor. Shuningdek, agentlik tizimidagi maktablarda iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalashda yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, o‘quvchilarning xalqaro olimpiadalardagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash hamda bitiruvchilarni yurtimizdagi va xorijdagi yetakchi oliy ta’lim muassasalariga tayyorlash vazifalari belgilangan.

Qabul jarayoni ham me’yoriy jihatdan tartibga solingan. 2023-yil 27-maydagi Vazirlar Mahkamasining “Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga o‘quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 214-son qarori Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga o‘quvchilarni saralab olish va qabul qilish tartibini belgilaydi. Nomzod imtihonni davlat tilida,

qoraqalpoq tilida yoki o‘z tanloviga ko‘ra ingliz tilida topshirishi mumkin. Bu ko‘p tilli ta’lim muhitida iqtidorni baholashda til omilini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim sohasida esa bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari keng muhokama qilinmoqda.

Shunday qilib, mamlakatimizda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, saralash va o‘qitish uchun institutsional va me’yoriy asos yaratilgan. Biroq ko‘rib chiqilgan hujjatlarda asosiy e’tibor ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘i, saralash tartibi va moddiy-texnik ta’minotga qaratilgan. Bunday o‘quvchilar bilan ishlaydigan o‘qituvchilarning tayyorgarligini, ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilarda tegishli kompetensiyani shakllantirish nazariyasi va metodikasini alohida yoritish zarurati saqlanib qolmoqda. Xorijiy modellarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali ushbu bo‘shliqni to‘ldirish ushbu tadqiqotning maqsadidir.

Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish masalasi iqtidorlilikning o‘zi qanday tushunilishiga bevosita bog‘liq. O‘qituvchi iqtidorni qanday talqin qilsa, uni aniqlash, rivojlantirish va baholashda ham shunga mos yondashuvni tanlaydi. Xorijiy adabiyotlarda bu masalaga bag‘ishlangan bir nechta modellar mavjud. Ushbu maqolada Renzulli, Gagne, Tomlinson va Sternberg yondashuvlari tanlandi, chunki ular bir-birini to‘ldiradi. Renzulli va Gagne iqtidorning mohiyati va tuzilishini, Tomlinson ta’lim jarayonini tashkil etish yo‘llarini, Sternberg esa qobiliyatlar spektrini kengaytirib talqin etishni yoritadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot nazariy-qiyosiy tahlil usuliga asoslangan. Iqtidorlilik va iqtidorli o‘quvchilar ta’limini tashkil etishga oid xorijiy modellar tahlil qilindi. Tanlangan to‘rtta asosiy model Renzulli uchhalqali modeli, Gagne differensiallashtirilgan iqtidor va layoqat modeli – DMGT, Tomlinson differensiallashtirilgan ta’lim konsepsiyasi va Sternberg muvaffaqiyatli aql / WICS modeli bir-birini to‘ldirish xususiyatiga ko‘ra tanlandi. Har bir modelning mohiyati, komponentlari, pedagogik ahamiyati va tanqidiy jihatlari alohida tahlil qilindi. Keyin modellarni O‘zbekiston ta’lim tizimi, baholash an’analari, madaniy kontekst va mavjud me’yoriy-huquqiy sharoitga moslashtirish yo‘nalishlari qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqildi. Tahlil natijalariga asoslanib iqtidorlilik tushunchasining xulosaviy ta’rifi ishlab chiqildi.

NATIJALAR. Renzullining uch halqali modeli iqtidorlilikni bitta qobiliyat bilan emas, uchta xususiyat bilan tushuntiradi. Ularni uch halqa deb nomlaydi. Birinchisi o‘rtachadan yuqori qobiliyat bo‘lib, bu umumiy qobiliyat (mantiqiy fikrlash, xotira, so‘z boyligi) yoki maxsus qobiliyat (matematika, musiqa, tasviriy san’at, sport va boshqalar) bo‘lishi mumkin. Renzulli bu yerda “juda yuqori” emas, “o‘rtachadan yuqori” darajani nazarda tutadi. Ikkinchi xususiyat topshiriqlarni bajarishdagi mas’uliyatlilik. Bu o‘quvchining biror ishga qat’iyat, sabr-toqat va qiziqish bilan berilishi, uni oxiriga yetkazishga intilishidir. Unga motivatsiya, mehnatsevarlik va o‘ziga ishonch kiradi. Uchinchi element ijodkorlik bo‘lib, u fikrlashdagi original yondashuv, moslashuvchanlik, yangi g‘oyalar yaratish va noodatiy yechim topish qobiliyatidir.

Renzullining ta’kidlashicha, iqtidorlilik bu uch halqaning kesishgan qismida namoyon bo‘ladi. Faqat bittasi yoki ikkitasi bo‘lsa, bu hali iqtidorlilik emas. Masalan, yuqori qobiliyatli, lekin qiziqishi va ijodkorligi yo‘q o‘quvchi model bo‘yicha iqtidorli hisoblanmaydi.

Renzulli iqtidorlilikni fe’l-atvor (xulq) sifatida ko‘radi: u doimiy xususiyat emas, balki ma’lum sharoit va faoliyatda namoyon bo‘ladigan holat. Shuning uchun uch halqa fonida muhit omillari (oila, maktab, o‘qituvchi, tengdoshlar) va shaxsiy omillar (o‘zini baholash, tashqi ta’sirga munosabat) ham tasvirlanadi. Ular uch halqaning rivojlanishiga yordam beradi yoki to‘sqinlik qiladi.

Renzulli modelining pedagogik ahamiyati quyidagicha:

• Faqat IQ yoki test natijasiga tayanmasdan, o‘quvchining qiziqishi, mustaqil ishlashi va ijodiy ishlari ham hisobga olinadi.

• Renzullining “Boyitish uch bosqichli modeli” (Enrichment Triad Model) shu nazariyaga tayanadi: umumiy izlanish faoliyati, guruh mashqlari va haqiqiy muammolar ustida individual yoki kichik guruh tadqiqoti.

• Renzulli “Schoolwide Enrichment Model” orqali taxminan 15–20% o‘quvchilarni boyitish dasturiga jalb etishni taklif qiladi.

Shu bilan birga, modelga nisbatan tanqidiy fikrlar ham bildiriladi. Ijodkorlik va motivatsiyani o‘lchash qiyin. Yuqori qobiliyatli, lekin motivatsiyasi past o‘quvchilar (underachievers) model bo‘yicha iqtidorli deb topilmaydi. Boshqa mualliflar esa iqtidor va iste’dod o‘rtasidagi farqni alohida ajratib ko‘rsatgan.

Aynan shu farqni chuqur yoritgan yondashuvlardan biri kanadalik psixolog Fransua Gagne ishlab chiqqan differensiallashtirilgan iqtidor va layoqat modeli (Differentiated Model of Giftedness and Talent, DMGT) bo‘lib, u 1985 yilda taklif qilingan va keyinchalik bir necha marta yangilangan.

Gagne modeli iqtidor va iste’dod tushunchalarini ajratadi. Iqtidor tabiiy, o‘rganilmagan qobiliyatlar bo‘lib, ehtimoliy imkoniyat sifatida mavjud bo‘ladi. Iste’dod esa muayyan faoliyat sohasida (ta’lim, sport, san’at, texnika va h.k.) tizimli o‘qish va mashq natijasida rivojlangan bilim va ko‘nikmalardir. Ya’ni iqtidor xomashyo, iste’dod uning rivojlangan natijasi. Har bir iqtidorli bola ham iste’dodga aylanmaydi.

Modelning komponentlari:

1. Tabiiy qobiliyat sohalari (iqtidor): intellektual, ijodiy, ijtimoiy-hissiy, harakat-sezgi.
2. Rivojlangan iste’dod sohalari: akademik, texnik, ijtimoiy xizmat, biznes, san’at, sport va boshqalar.
3. Katalizatorlar (jarayonga ta’sir etuvchi omillar): intrapersonal (motivatsiya, iroda, xarakter, o‘z-o‘zini boshqarish) va atrof-muhit (oila, maktab, o‘qituvchilar, ta’lim sharoiti, tengdoshlar).
4. Tasodif: omadning ta’siri ham hisobga olinadi.
5. Rivojlanish jarayoni: o‘quv, mashq, tajriba orqali qobiliyatdan iste’dodga o‘tish.

Model iqtidorni statik emas, dinamik deb qaraydi: qobiliyat faqat qulay muhit, motivatsiya va to‘g‘ri pedagogik yordam bo‘lgandagina iste’dodga aylanadi. Shu sababli model iqtidorni aniqlash va rivojlantirishda o‘qituvchining roli katta ekanini ta’kidlaydi. Gagne iqtidorlilarni foiz bo‘yicha darajalarga ajratishni ham taklif qilgan: yengil iqtidorli (top 10%), o‘rtacha (top 1%), yuqori (top 0,1%), favqulodda (top 0,01%) va h.k.

Gagne modeli o‘qituvchi va ta’lim muhitining hal qiluvchi rolini ko‘rsatadi, biroq bu rolni sinfda amalda qanday ro‘yobga chiqarish masalasi ochiq qoladi. Unga javob beruvchi yondashuvlardan biri amerikalik pedagog Kerol Enn Tomlinsonning differensiallashtirilgan ta’lim konsepsiyasidir. Unga ko‘ra o‘qituvchi darsni barcha o‘quvchilarga bir xil emas, ularning tayyorgarligi, qiziqishi va o‘rganish uslubiga qarab moslashtiradi. Asosiy g‘oya shuki, sinfdagi o‘quvchilar bir-biridan farq qiladi, shuning uchun ta’lim ham “hamma uchun bir xil” bo‘lmasligi kerak.

Differensiallashtirilgan ta’lim o‘quvchining uchta xususiyatiga tayanadi:

1. Tayyorgarlik darajasi: o‘quvchi mavzuni hozir qaysi darajada bilishi va uni qanchalik tez o‘zlashtira olishi.
2. Qiziqish: o‘quvchini nima jalb qilishi, qaysi mavzu va faoliyat uni motivatsiya qilishi.
3. O‘quv profili: o‘quvchi qanday o‘rganishni afzal ko‘rishi (ko‘rish, eshitish, amaliy ish, yakka yoki guruhda va h.k.).

Tomlinson o‘qituvchi to‘rtta yo‘nalishda o‘zgartirish kiritishi mumkinligini ta’kidlaydi:

- Mazmun: nimani o‘rgatish (masalan, bir xil mavzu bo‘yicha turli murakkablikdagi matnlar).
- Jarayon: o‘quvchi mazmunni qanday o‘zlashtirishi (tayanch topshiriqlar, mustaqil ish yoki juftlikda ishlash).
- Mahsulot: o‘quvchi o‘rganganini qanday namoyish etishi (referat, taqdimot, loyiha yoki test).
- Muhit: sinf muhiti, joylashuv, ishlash sharoiti.

Tomlinson yondashuvida quyidagi amaliy strategiyalar ilgari suriladi:

- Diagnostik baholash: mavzuni boshlashdan oldin o‘quvchilar bilim darajasini aniqlash.
- Moslashuvchan guruhlash: guruhlar doimiy emas, topshiriqqa qarab o‘zgarib turadi.
- Pog‘onali topshiriqlar (tiered assignments): maqsad bir xil, ammo topshiriq murakkabligi turlicha.
- Tanlov menyusi: o‘quvchi bir nechta topshiriqdan o‘ziga mosini tanlaydi.
- Doimiy formativ baholash: o‘qituvchi natijaga qarab rejani tuzatib boradi.

Tomlinson yondashuvining muhim jihati shundaki, differensiallashtirilgan ta’lim standartlarni pasaytirish emas. Maqsad hamma uchun bir xil bo‘lib qoladi, faqat unga yetish yo‘llari farqlanadi. Shuningdek, u individuallashtirilgan ta’limdan farq qiladi: har bir o‘quvchiga alohida dars emas, sinf ichida bir necha xil yo‘l taklif qilinadi.

Differensiallashtirish o‘qituvchidan o‘quvchilarning turli ehtiyoj va qobiliyatlarini ko‘ra olishni talab etadi. Qobiliyatning o‘zi qanchalik keng tushunilishi kerakligi haqidagi savolga R. Sternberg nazariyasi javob beradi. U tomonidan ishlab chiqilgan muvaffaqiyatli aql (successful intelligence) nazariyasi va unga asoslangan WICS modeli iqtidorni faqat yuqori intellektual ko‘rsatkich bilan cheklamasdan, analitik, ijodiy va amaliy qobiliyatlarning uyg‘un ifodasi sifatida talqin qiladi (Sternberg, 1985; 2003). Bu yondashuvga ko‘ra iqtidorli shaxs murakkab masalalarni tahlil qila oladi, yangi g‘oyalar yarata oladi va bilimini real hayot vaziyatlarida samarali qo‘llay oladi. Ta’lim jarayoni nuqtai nazaridan bu model o‘qituvchidan

o‘quvchilarning turli qobiliyat profillarini ko‘ra olish, o‘qitish va baholash usullarini shunga mos ravishda differensiyalash kompetensiyasini talab qiladi. Shu sababli model bo‘lajak o‘qituvchilarda iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish uchun nazariy asos bo‘la oladi.

Shu bilan birga, modelning ilmiy asoslanishi bo‘yicha e’tirozlar mavjud. Tanqidchilarning fikricha, triarxik nazariyadagi qobiliyatlar o‘zaro sezilarli korrelyatsiyaga ega bo‘lib, ularni umumiy aql omilidan mustaqil deb hisoblash yetarli darajada isbotlanmagan (Gottfredson, 2003; Brody, 2003). Bundan tashqari, ijodiy va amaliy qobiliyatlarni ishonchli o‘lchash muammosi hamda modelning ta’limdagi samaradorligini tasdiqlovchi mustaqil, uzoq muddatli tadqiqotlarning cheklanganligi ham qayd etiladi. Ayniqsa, modelning O‘zbekiston ta’lim tizimi, o‘quv dasturlari va madaniy konteksti sharoitida qo‘llanishi bo‘yicha empirik ma’lumotlar deyarli mavjud emas. Shu bois ushbu tadqiqotda Sternberg modeli universal yechim sifatida emas, balki bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligi kontekstiga moslashtirilgan va amalda sinovdan o‘tkaziladigan nazariy asos sifatida qo‘llaniladi.

MUHOKAMA. Ko‘rib chiqilgan to‘rt yondashuv iqtidorlilikni bir-birini to‘ldiruvchi jihatlardan yoritadi, ammo ularning barchasi Yevropa va Shimoliy Amerikaning ta’lim muhitida shakllangan. Ularni O‘zbekistonda qo‘llash uchun ta’lim tizimining tuzilishi, baholash an’anasi va madaniy kontekstini hisobga olib moslashtirish zarur. Quyida har bir model bo‘yicha moslashtirishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatiladi.

Renzulli modelini moslashtirishning asosiy masalasi iqtidorni aniqlash mezonlariga tegishli. Mamlakatimizda iqtidorli bolalarni saralashda asosan bilim va tafakkur testlaridan foydalaniladi. Masalan, Prezident maktablariga qabulda birinchi bosqichda matematikadan 30 ta test, ikkinchi bosqichda esa tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilishga oid 40 ta matematik topshiriq hamda ingliz tili bo‘yicha 40 ta topshiriq beriladi. Renzulli modeli nuqtai nazaridan bunday saralash birinchi halqani (o‘rtachadan yuqori qobiliyat) yaxshi qamrab oladi, ikkinchi (topshiriqqa bag‘ishlanish) va uchinchi (ijodkorlik) halqalarni esa alohida baholash imkoniyati cheklangan bo‘lishi mumkin. Shu bois modelni moslashtirishda o‘quvchi portfoliosi, loyiha va tadqiqot ishlari, o‘qituvchi kuzatuvi kabi qo‘shimcha vositalarni joriy etish, hamda “boyitish” g‘oyasini oddiy umumta’lim maktablarida to‘garaklar, fan olimpiadalari va loyiha faoliyati doirasida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Gagne modelini moslashtirishda iqtidordan iste’dodga o‘tishni ta’minlovchi katalizatorlarga e’tibor qaratiladi. O‘zbekiston sharoitida oila, mahalla, maktab va o‘qituvchining o‘rni, shuningdek olimpiadalar, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tizimi bu katalizatorlar sifatida tahlil qilinishi mumkin. Modelning “atrof-muhit” komponenti milliy qadriyatlar, oilaviy kutishlar va ijtimoiy muhit ta’sirini ham o‘z ichiga oladi. Bu jihatlar mahalliy empirik tadqiqotlarda o‘rganilishi lozim.

Tomlinson yondashuvini moslashtirishda davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari doirasida differensiallashtirilgan ta’limni amalga oshirish imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Model standartlarni pasaytirishni emas, ularga yetish yo‘llarini farqlashni nazarda tutgani uchun u yagona standartlar sharoitida qo‘llanishga mos keladi. Bunda turli qiyinlik darajasidagi topshiriqlar, tanlov menyusi va formativ baholash kabi strategiyalarni milliy darsliklar

mazmuniga bog‘lash va o‘qituvchining real yuklamasini hisobga olish kerak. Shuningdek, “o‘quv profili” tushunchasini qo‘llashda ehtiyotkorlik zarur, chunki o‘rganish uslublariga moslashtirilgan o‘qitish samaradorligi ilmiy jihatdan yetarlicha tasdiqlanmagan.

Sternberg modelini moslashtirishda analitik, ijodiy va amaliy qobiliyatlarni baholash vositalarini mahalliy til va madaniy kontekstga mos ishlab chiqish talab etiladi. Bu, ayniqsa, amaliy qobiliyatni o‘lchashda muhim, chunki amaliy vaziyatlar madaniyatga bog‘liq. Shu sababli bu tadqiqotda modelning uch komponenti bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligida o‘quv topshiriqlari va pedagogik amaliyot vazifalarini loyihalash uchun asos sifatida foydalaniladi.

XULOSA. Yuqoridagi modellar tahlili asosida iqtidorlilik tushunchasiga quyidagi ta’rif berildi:

Iqtidorlilik — shaxsning intellektual, ijodiy, ijtimoiy yoki sezgi-harakat sohalaridagi tug‘ma, sezilarli yuqori layoqatga ega bo‘lib, ichki (motivatsiya, iroda) va tashqi (oila, maktab, o‘qituvchi, tengdoshlar) omillar ta’sirida, maqsadli ta’lim va mashq jarayonida muayyan faoliyat sohasidagi iste’dodga aylanishi mumkin bo‘lgan imkoniyatdir.

Ushbu ta’rif va moslashtirilgan yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarda iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish uchun nazariy asos vazifasini bajarishi mumkin. Kelgusida mahalliy empirik tadqiqotlar orqali modellarning amaliy samaradorligini tekshirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son qarori “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyuldagi PQ-5188-son qarori “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-son farmoni “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”.
4. Gagné, F. . Giftedness and talent: Reexamining a reexamination of the definitions. *Gifted Child Quarterly*, 1985.
5. Gagné, F. Transforming gifts into talents: The DMGT as a developmental theory. *High Ability Studies,* 2004.
6. Renzulli, J. S. *The Enrichment Triad Model: A guide for developing defensible programs for the gifted and talented.* Creative Learning Press, 1977.
7. Renzulli, J. S. What makes giftedness? Reexamining a definition. *Phi Delta Kappan,* 1978.
8. Renzulli, J. S. The three-ring conception of giftedness: A developmental model for promoting creative productivity. In R. J. Sternberg & J. E. Davidson (Eds.), *Conceptions of giftedness*. Cambridge University Press. 2005.
9. Sternberg, R. J. *Beyond IQ: A triarchic theory of human intelligence.* Cambridge University Press. 1985.

10. Sternberg, R. J. (2003). WICS as a model of giftedness. *High Ability Studies*, 109–137.
11. Tomlinson, C. A. (1999). *The differentiated classroom: Responding to the needs of all learners.* ASCD.
12. Tomlinson, C. A., Brighton, C., Hertberg, H., Callahan, C. M., Moon, T. R., Brimijoin, K., Conover, L. A., & Reynolds, T. Differentiating instruction in response to student readiness, interest, and learning profile in academically diverse classrooms: A review of literature. *Journal for the Education of the Gifted*, 2003.